

# Zamonaviy ta'limda loyihaga asoslangan texnologiyalarning ahamiyati

Madina Holqova  
Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya:** So‘nggi o‘n yilliklarda Yevropa oliv ta’limida rivojlangan uslubiy paradigma talabalarning ish bilan ta’milishiga erishish uchun “kompetentsiya” tushunchasiga qaratilgan. Ta’limning ushbu professionalizatsiyasi yanada moslashuvchan va faol o‘qitish kontekstlarini talab qiladi. Talabalarning istiqboli o‘zlarining motivatsiyasi va ishlashida muhim rol o‘ynashini hisobga olib ushbu maqolada loyihaga asoslangan ta’lim qanday qilib talabalarning ba’zi asosiy kompetentsiyalarni yaxshilashi va ushbu usulning foydaliligi, afzalliklari va kamchiliklari to‘g‘risida talabalarning fikrlarini o‘rganishni maqsad qilganmiz. Izlanishlar natijasida, loyihamalar bilan ishlash jamoaviy ish, aloqa, ijodkorlik, tashkilot va axborotni boshqarish vakolatlarini takomillashtirish samaradorligini qo‘llab-quvvatlaydi.

**Kalit so‘zlar:** loyihaga asoslangan ta’lim, tanqidiy fikrlash, kompetensiya, loyihamaviy ish, ta’lim paradigmasi, kreativlik

## The importance of project-based technologies in modern education

Madina Holikova  
Bukhara State University

**Abstract:** The methodological paradigm that has developed in European higher education in recent decades is focused on the concept of “competence” in order to achieve student employability. This professionalization of education requires more flexible and active learning contexts. Given that students’ perspectives play an important role in their motivation and performance, this article aims to explore how project-based learning can improve some of the key competencies of students and to explore students’ opinions on the usefulness, advantages and disadvantages of this method. As a result of the research, it was found that working with projects supports the effectiveness of improving teamwork, communication, creativity, organization and information management competencies.

**Keywords:** project-based learning, critical thinking, competence, project work, educational paradigm, creativity

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining keng rivojlanishi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash zaruratidan kelib chiqqan holda tub islohotlar bosqichiga kirgan. An’anaviy bilimga asoslangan o‘qitishdan amaliy, interfaol va kompetensiyaviy yondashuvga o‘tish ehtiyoji kuchaymoqda. Bu esa pedagogik texnologiyalarni yangilashni, o‘quvchi shaxsini faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlarni tatbiq etishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, loyihaga asoslangan ta’lim (LAT) texnologiyalari hozirgi kunda global va milliy ta’lim siyosatida o‘zining dolzarbligi bilan ajralib turibdi. Ushbu maqolada loyihaviy texnologiyaning nazariy asoslari, amaliy afzalliklari va O‘zbekiston ta’lim tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Loyihaviy texnologiya XX asrning boshlarida amerikalik pedagog Jon Dyui, keyinchalik Kilpatrick va boshqa metodistlar tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, o‘quvchilarni hayotiy muammolarni mustaqil hal etishga o‘rgatish g‘oyasiga asoslanadi. Bu texnologiyada o‘quvchi - passiv bilim oluvchi emas, balki muammo yechimini topuvchi, loyiha ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritadi.

Bugungi ta’lim paradigmasi konstruktivistik yondashuvni o‘z ichiga olgan holda, bilimlarni tayyor shaklda emas, balki o‘quvchining o‘z faoliyati davomida o‘zlashtirishini qo‘llab-quvvatlaydi. LAT ana shunday yondashuvga mos bo‘lib, “bilim”dan ko‘ra “tajriba”ni ustuvor qo‘yadi.

Loyihaga asoslangan ta’lim bilim olishning samarali va qiziqarli usulidir. Unda ta’lim oluvchilar o‘z hayotida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarini chuqurroq egallaydilar. Loyihaga asoslangan ta’limda ta’lim oluvchi passiv emas, faol bo‘ladi, loyiha ularning qalbi va ongini o‘ziga jalb qiladi va o‘rganish uchun real hayotiy muammolar yechimini topishga undaydi. Loyerha so‘ngida ta’lim oluvchilar mazmunni chuqurroq tushunishadi, o‘rganganlarini eslab qolishadi va uni an’anaviy ta’limga qaraganda uzoqroq saqlashadi. Shu sababli loyihaga asoslangan ta’lim bilan mazmunli bilimga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘zlarini bilgan va qila oladigan narsalarni yangi vaziyatlarda qo‘llashlari mumkin. Loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyasida talabalar bilim, ko‘nikmalarni real dunyoda qo‘llashlari mumkin bo‘ladi. Tanqidiy fikrlashni, muammolarni hal qilish, hamkorlikda ishlash, nutq va taqdimot ko‘nikmalarini, ommaviy axborot vositalari bilan muloqot qilish kabi qobiliyatlarini rivojlanib boradi. Loyihaga asoslangan ta’lim yetarlicha qat’iy emasligi uchun tanqid qilingan bo‘lsa-da, quyidagi xususiyatlar loyihaning muvaffaqiyat va imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Ular haqiqiy muammo yoki loyiha ta’lim oluvchilarning ko‘nikma va qiziqishlariga mos keladi, aniq belgilangan mazmun va ko‘nikmalarni o‘rganishni talab qiladi.

Loyihaviy o‘qitish texnologiyasi bir nechta muhim afzalliklari bilan ajralib turadi:

Tanqidiy fikrlash va muammo yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi: O‘quvchi real hayotdagi vaziyatlarga o‘xshash masalalarni hal etish orqali tahlil, baholash va

qaror qabul qilishga o‘rganadi.”O‘qish, yozish va tanqidiy fikrlash” loyihasida ta’kidlanganidek, “ Odam tanqidiy fikrlar ekan u yoki bu g‘oyalalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo‘lgan oqibatlarni ham e’tiborga oladi. Bunda odam bu g‘oyalarni dastlab ma’lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtayi- nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo‘sishimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o‘z nuqtayi nazarlarini ishlab chiqadi”. Tanqidiy fikrlash - g‘oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg‘unlashuvi, konsepsiyanı qayta qurishdek murakkab jarayondir. Bu faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtida ro‘y beradigan jarayon ham hisoblanadi. Tanqidiy fikrlaydigan shaxsga hech qanday turli hiyla-nayranglar va nosog‘om g‘oyalarni ta’sir qilmaydi, chunki u o‘zining qat’iy shaxsiy qarashlariga ega.

Ijodkorlik va tashabbuskorlikni qo‘llab-quvvatlaydi: Loyiha yaratish jarayoni g‘oya, dizayn va ijro jarayonini o‘z ichiga oladi. Ijodkorlik - bu yangi foydali g‘oyalarni taklif qilish demakdir. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi.

Jamoaviy ishslash va kommunikatsiya malakasini oshiradi: O‘quvchilar guruhlarda ishslash orqali o‘zaro fikr almashadi, bahslashadi, fikrini himoya qiladi.Zamonaviy ta’limda “4K” modeli ta’limning yanada samaradorligini ta’minlamoqda uning asosiy elementlarida biri bu hamkorlikdagi faoliyat bo‘lib, bunda shaxslar o‘zaro fikr almashadi, birgalikda muammoga yechim topadi, uni hal etadi, yoki vazifani birgalikda bajaradi. Loyihalar hamkorlikda tashkil etilganda ham, tanqid va tahlil natijasi o‘laroq sayqallanadi va murakkablashadi.

Amaliyotga yo‘naltirilgan: Loyiha - bu nazariyani amaliyotga tatbiq qilish vositasi. Har bir loyiha natijasi ko‘rinadigan mahsulot yoki xizmat shaklida bo‘lishi mumkin. Loyihalash mohiyatan insonda mavjud bilim va ko‘nikmalarni hayotga tatbiq etish, ya’ni kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida amalga oshiriladi, kompetensiyaning mahsuli sifatida ham yotirishimiz mumkin hisoblanadi.

Baholash tizimini boyitadi: An’anaviy test yoki yozma ish o‘rniga, yakuniy loyiha natijasi, prezentatsiya, jamoaviy ish baholanadi. Bu esa o‘z navbatida talabalar o‘z mehnatlari, bilimlari va ko‘nikmalari qaysi asosga ko‘ra baholanayotgani va darajalanayotganini aniq, Ravshan tushunadi, chunki loyiha bir kunda emas, balki insonning g‘oyalarning sekin-asta faoliyatga tatbiq etilgan modeli hisoblanadi.

### 3. LAT texnologiyasining amaliy qo‘llanilishi

O‘zbekiston ta’lim tizimida LAT texnologiyasini joriy etish bo‘yicha qator amaliy ishlar boshlangan. Xususan, Prezident maktablari, ijod maktablari va ayrim oliy ta’lim muassasalarida loyiha asosidagi fanlar bo‘yicha topshiriqlar ishlab chiqilmoqda. Masalan:

• Ijtimoiy fanlar sohasida: “Mahallada ekologik madaniyatni oshirish”, “Oiladagi gender rollar evolyutsiyasi” kabi loyihalar o‘quvchilar tomonidan mustaqil ishlab chiqiladi.

• Pedagogika yo‘nalishida: Talabalar o‘z darslarini loyiha shaklida loyihalab, maktablarda sinovdan o‘tkazmoqda.

• STEM ta’limida: Informatika, biologiya va matematika fanlarida robototexnika, eksperiment asosida qurilgan mini-loyihalar keng tatbiq etilmoqda.

Xorijiy tajribaga murojaat qiladigan bo‘lsak, AQSHda High Tech High, Finlandiyada Espoo maktablari, Janubiy Koreyada Smart School konsepsiysi asosida LAT keng qo‘llaniladi. Ularning tajribasida har bir chorak yoki semestr yakunida o‘quvchilar loyiha asosida hisobot yoki prototip taqdim etadilar.

Xulosa va takliflar: Loyihaga asoslangan o‘qitish texnologiyasi zamonaviy ta’limning strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. U o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi, amaliy bilimlarga ega bo‘lishi va real muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston ta’lim tizimida bu texnologiyani quyidagi yo‘nalishlarda rivojlantirish maqsadga muvofiq:

1. O‘qituvchilarni LAT metodikasi bo‘yicha tayyorlash;
2. Fan dasturlarini LATga moslashtirish;
3. Baholash va monitoring tizimini loyihaviy faoliyatga integratsiya qilish;
4. Loyihaviy ishlar uchun zamonaviy texnik va axborot vositalari bilan ta’minlash;
5. Talabalarning ijtimoiy muammolarga bag‘ishlangan amaliy loyihalarini rag‘batlantirish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Dewey J. (1938). Experience and Education.
2. Kilpatrick W.H. (1918). The Project Method.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
4. UNESCO Education Strategy 2030.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi materiallari.
6. Murodova G. (2021). “Zamonaviy darsda innovatsion texnologiyalar”. - Toshkent: TDPU nashriyoti.
7. Xorijiy maktablar amaliyotidan misollar (AQSH, Finlandiya, Janubiy Koreya).
8. Karimova Munira, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi ingliz tili fani o‘qituvchi-stajyori. Loyihaga asoslangan ta’lim: yutuq va samaradorlik. <https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp254-256> STARS International University 255

9. Samiyeva Sh.X, Narzulloyeva F.F (2023) “Kreativ fikrlash”: darslik-Buxoro: Bukhara hamd print.
10. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2003.
11. Каримова, М. (2022). Loyihaga asoslangan ta’lim: yutuq va samaradorlik. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(3), 254-256.\
12. Ne’Matov, B. R. S. (2021). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 899-907.